
DAVRA SUHBATI O'TKAZILDI



Qo'shtepa tumanidagi "Sarmozor" MFY binosida Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudining raisi A.Akbarov tomonidan mahalla fuqarolar yig'ini hududida iste'qomat qiluvchi "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar hamda mahalla faollari ishtirokida davra suhbati o'tkazildi.

Tadbir davomida muntazam ravishda sudlar tomonidan targ'ib qilib borilayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 apreldagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-762-sonli Qonunning mazmun-mohiyati, 2022 yil 25 yanvar kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-747-sonli Qonuni mazmun-mohiyati, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturining 34-bandini ijrosi hamda O'zbekiston Respublikasida chaqaloqlar va bolalar savdosi bilan bog'liq jinoiy holatlarni oldini olish va unga qarshi muvosiq kurashish yo'nalishi yuzasidan A.Akbarov tomonidan tushuntirishlar berildi. Shuningdek, davra suhbati so'ngida ishtirokchilar tomonidan berilgan savollar va fikrlarga tegishli tartibda javoblar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-09-22 12:54:29